

**GIPERTONIYA KASALLIGI: YOSHGA QARAB DAVOLASH USULLARI**

*Alfraganus Universiteti Tibbiyot fakulteti  
davolash ishi yo'nalishi 3 - kurs talabasi  
Abdurahmonova Dilnoza*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada gipertoniya kasalligini yoshga qarab davolash masalalari tahlil qilinadi. Turli yosh guruqlarida arterial bosimning ko'tarilishi bilan bog'liq sabablari, klinik belgilarining o'ziga xosligi hamda yoshga mos ravishda qo'llaniladigan davo usullari yoritilgan. Shuningdek, profilaktik chora-tadbirlar, farmakologik va nofarmakologik yondashuvlar ham tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Gipertoniya, arterial bosim, yoshga qarab davolash, dori vositalari, profilaktika.

Gipertoniya (yuqori qon bosimi) — yurak-qon tomir tizimining eng ko'p uchraydigan kasalliklaridan biridir. Bu holat asosan yoshi kattalarga xos deb qaralsada, hozirgi kunda bolalar va o'smirlar orasida ham gipertoniya tez-tez uchrab turibdi. Shu sababli kasallikni davolashda yondashuv yoshi, holati va boshqa omillar asosida farqlanishi zarur.

Gipertoniyaning yoshga xos klinik belgilari Bolalar va o'smirlar: gipertoniya kam uchraydi, lekin ikkilamchi gipertoniya (boshqa kasallik fonida) ko'p hollarda aniqlanadi. Belgilar: bosh og'rig'i, charchoq, konsentratsiya pasayishi. O'rta yoshdagi odamlarda: birlamchi gipertoniya ustunlik qiladi. Belgilar: bosh og'rig'i, yurak urishining kuchayishi, quloqda shovqin. Qariyalarda: sistolik bosim ko'tarilishi bilan namoyon bo'ladi, yurak yetishmovchiligi xavfi ortadi.

Davolash tamoyillari yoshga qarab Bolalar va o'smirlar: Birlamchi sabablarga e'tibor qaratiladi (bubka kasalliklari, endokrin tizim, buyraklar). Dori-darmonlar faqat zarur holatlarda qo'llaniladi. Tuz iste'molini kamaytirish, jismoniy faollikni oshirish. O'rta yoshdagilar: ACE inhibitörlari (enalapril), beta-blokatorlar, diuretiklar. Stressni kamaytirish, ovqatlanishni nazorat qilish. Davolash shaxsiylashtirilgan bo'lishi kerak. Qariyalar: Dori tanlashda organizmning yoshi bilan bog'liq o'zgarishlari hisobga olinadi. Diuretiklar va kaltsiy antagonistlari ko'proq tavsiya etiladi. Qon bosimini keskin tushirmslik kerak.

Profilaktika va nazorat Har bir yosh guruvida sog'lom turmush tarzi, vazn nazorati, shakar va yog' miqdorini kamaytirish, chekish va alkogoldan voz kechish muhim. Muntazam tibbiy ko'riklar orqali erta aniqlash. Oila tarixi mavjud bo'lsa, erta yoshdan boshlab nazoratga olish kerak.

**Xulosa:** Gipertoniya yoshga qarab turlicha kechishi va davolashda yondashuvlar farq qilishi bilan ajralib turadi. Bolalarda ko'proq ikkilamchi shakllar kuzatilsa, o'rta

va katta yoshlarda birlamchi gipertoniya ustunlik qiladi. Har bir yosh toifasida kasallikni erta aniqlash va mos davolash usulini tanlash — sog‘lom hayot sifatining garovidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirligi, “Gipertoniya kasalliklarini davolash bo‘yicha klinik protokollar”, 2023.
2. World Health Organization (WHO). “Hypertension: Fact sheets”, 2022.
3. Kaplan N.M. “Clinical Hypertension”, Lippincott Williams & Wilkins, 2019.
4. Григорьев А.И. «Гипертоническая болезнь и её лечение», Москва, 2020.